

Date: 23rd May-2026

O'ZBEKISTON XALQ USTASI-SULTONBOY OTAJONOV

Karimjonova Mohinur Odiljon qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti San'atshunoslik
va Amaliy san'at fakultiteti Muzeysunoslik: Muzei menejmenti va madaniy turizm
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Sultonboy Otajonov — Xorazm kulolchilik maktabining yirik namoyandalardan biri bo'lib, milliy amaliy san'at rivojiga ulkan hissa qo'shgan ustadir. U sopol buyumlar yaratishda o'ziga xos uslubni shakllantirib, oq angobdan mahorat bilan foydalangan. Ustaning ijodi milliy an'analarni asrab-avaylash va yosh avlodga hunarmandchilik sirlarini yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Sultonboy Otajonov, O'zbekiston xalq ustasi, kulolchilik, Xorazm kulolchilik maktabi, amaliy san'at, sopol buyumlar, hunarmandchilik, milliy meros, oq angob, xalq san'ati.

Аннотация: Султонбой Отажонов один из выдающихся представителей хорезмской школы керамики, внесший значительный вклад в развитие национального декоративно-прикладного искусства. Мастер создал уникальный стиль изготовления керамических изделий, искусно используя белый ангоб. Его творчество играет важную роль в сохранении национальных традиций и передаче секретов ремесла молодому поколению.

Ключевые слова: Султонбой Отажонов, народный мастер Узбекистана, керамика, хорезмская школа керамики, декоративно-прикладное искусство, ремесленничество, национальное наследие, керамические изделия, белый ангоб, народное искусство.

Abstract: Sultonboy Otajonov is one of the prominent representatives of the Khorezm pottery school who made a significant contribution to the development of Uzbek traditional applied arts. The master developed a unique artistic style in ceramic craftsmanship and skillfully used white engobe in his works. His creative activity plays an important role in preserving national traditions and passing handicraft skills on to future generations.

Keywords: Sultonboy Otajonov, People's Master of Uzbekistan, pottery, Khorezm pottery school, applied arts, handicraft, ceramic art, national heritage, white engobe, folk art.

XX asrda boshlarida Xorazmda Ko'hna Urganch (Eshmurot usta), Xiva, Madir (Xonqa yaqinidagi qishloq) va Kattabog' (Yangiariq) kulollar maktabi foaliyat ko'rsatgan. Xorazm kulolchilik maktabi Rishton (Farg'ona), Toshkent, Samarqand, G'ijduvon (Buxoro) va boshqa kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyasi, rangi, dinamikligi (o'ynoqilik), estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tib kelgan va hozirgi kunda ham rivojlanib takomillashib kelmoqda.



Date: 23rd May-2026



Kattabog' qishlog'i qadimdan kulollik o'choqlaridan biri bo'lgan. XX asr boshlarida bu qishloqda o'n beshta kulollik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq usta ishlagan. Kattabog' qishlog'ida kulol Otajonovlar sulolasining sakkizinchi avlod vakillari kamolga yetmoqda. Usta Sharif bobo o'g'li Yusuf kulolning o'g'li bo'lgan bobomiz Mulla Qodir Bergan ishini uning o'g'li usta Matyoqub bobo davom ettirgan. Matyoqub bobodan kulolchilik hunari uning o'g'li usta kulol Otajon boboga meros bo'lib qolgan. Otajon boboning ishini uning o'g'li usta kulol Sultonboy davom qildirgan. Otajon bobo Matyoqubov 1909-

yilda tug'ilgan. 1985-yilda vafot etgan. Kattabog' qishlog'ida muqim yashagan. Ko'haqal'a elatida mo'jazgina ustaxonasi bo'lgan. Sho'rolar davrida milliy hunarmandchilikka e'tibor kam bo'lganligi, qadimiy obidalarni ta'mirlash u yoqda tursin, ulardan turli maqsadlarda foydalanilganligi sababli bobomizning ishlari soya ostida qolib ketgan. Kulollar bu davrda bir yoqlama faoliyat yuritganlar. Ya'ni faqat bodiya, tovoq va

boshqa idishlar tayyorlash bilan shug'ullanganlar. Mustaqillik yillarda qadimiy shaharlarimizda joylashgan obidalar, qutlug' qadamjolar nafaqat avvalgi ko'rkini tikladi, balki yanada yashardi, yangi qiyofa kashf etdi. Bunda xalq hunarmandlari yangi avlodining ham munosib hissasi bor, albatta. Usta Sultonboy Otajonov, Odilbek Rahimov, Bahodir Otajonov kabi o'nlab mohir kulollar koshin pishirishda katta tajribaga ega bo'lganlar. Ular o'tmishda Xivadagi hashamatli saroylar, madrasalar, maqbaralar koshinlarini pishirishda ishtirok etganlar.

Hozirgi kunda bu qishloqda 4 ta kulollik ustaxonasi ishlab turibdi. Lekin shu 4 ta ustaxonaning faqat bittasidagina qadimiy kulollik an'analari davom ettirilib, zangori rangda sopol buyumlar, koshinlar ishlab chiqarilmoqda.²


Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Sultonboy Otajonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Kattabog' qishlog'ida 1937-yilda kulollar oilasida dunyoga keldi. Shu davrda qishloqda 15 ta kulolchilik ustaxonasi bo'lib, 80 dan ortiq kulollar bo'lgan. Usta Sultonboy Otajonov yoshligidan kulolchilik sirlarini otasi va ustosi mashhur usta kulol Otajon Matyoqubovdan kulolchilik sir – asrorlarini o'rgandi. O'rta maktabda tahsil olgach, kim bo'lish to'g'risida o'ylab ham o'tirmadi³. Chunki u otasidan allaqachon hunar o'rgangan, kulolchilikka ishtiyoqi ham iqtidori ham baland edi. Koshin pishirishni shu davrning nom qozongan ustalari bobosi Otajon kuloldan o'rgandi. Usta Sulton otasi bilan hamkorlikda yaratgan san'at asarlari na'munalarini o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab Moskva shahridagi Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasiga yubora boshladi. Bir qator ko'rgazmalarda faxriy yorliqlar bilan

² О.Султонов. Зангори кулолчилик.//. Совет Ўзбекистони санъати. 1987 й.

³ Buvayeva V. Badiiy kulolchilikda oshyolarda ishlash. –Namangan. "Usmon Nosir media". 2022. –113 b.

Date: 23rd May-2026

taqdirlandi. U 1982- yilda O'zbekiston sobiq SSSR badiiy fond qoshidagi xalq san'ati ustalari birlashmasidan haqiqiy a'zo bo'lib ishlay boshladi. O'zbekiston madaniyat ishlari



vazirligi, YUNESKO, BMTning O'zbekistondagi rivojlantirish dasturi usta ijodiyotiga, uning xalq amaliy san'ati an'alarini davom ettirishga, rivojlantirishga qo'shgan hissasini yuksak baholadi, faxriy yorliq bilan taqdirlandi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. O'sha davrda kulollar kamayib ketgan edi. Shu bilan birga usta naqqoshlik sir – asrorlarini mukammal o'rgandi. XIX – XX asr Xiva koshinkorlik an'alarini boyitadigan buyumlar yaratdi. Xalqimizda “Shogirdsiz usta – mevasiz daraxt” deb bejiz aytilmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o'xshatishadi⁴. Chunki juda ko'p shogirdlar yetishtirib,

chiqargan. Ollanazar Sa'dullayev, Tojimurod Do'stchanov, Shixnazar Mardonbekov, Odilbek Rahimov, Iroda Sa'dullayeva, Sherzod Sa'dullayev, Madiyor Otajonov va boshqalar kulolchilik san'atini rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Tarixiy obidalarni ta'mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. 1956-yilda Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta'mirlashda qatnashdi. U gumbaz uchun zangori rangda koshinlar tayyorlab bergan (tashqi qismi), yana Ko'hna Ark darvozasining ikki minorasini va boshqa me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi.

Usta “olmaguli”, “kosa guli”, “qo'chqor shohi” cheksiz bargsimon “hoshiya naqshi”, “bodom guli”, “ilon izi”⁵ o'simlik navdalaridan tashkil topgan naqshlar bilan sopol buyumlarga hayot bag'ishlaydi. U asosan uch xil oq, qoramtir, yashil, lojuvard ranglardan foydalanadi. Oq rang qadimiy uslubda oq tosh avval xumbuz (maxsus kulollik pechi)da yuqori darajali issiqlikda pishiriladi. Undan keyin qo'l bilan aylantiriladigan tegirmonda un qilib tortiladi. Unga atala (bug'doy unidan tayyorlangan) aralashtirilib, buyum yuzasiga tekis surtiladi. Keyin quritib, naqsh chizila boshlaydi. Yashil rang mis kukunidan tayyorlanadi. Mis kukunini olish ham qadimiy uslubda bajariladi. Xumbuzga olov yoqish oldidan mis parchalari xumbuzning olov ko'p aylanadigan joyiga qo'yiladi. U yuqori darajali issiqlikda qovjirab kuyadi. Kukun maxsus so'qi (keli)ga solib tuyiladi. So'ngra katta qozonga solinib, suv aralashtirilib, tosh bilan uqalanadi va oz miqdorda loya aralashtiriladi. Mis va loya aralashmasi naqshlar orasiga maxsus mo'yqalam bilan surtiladi. U avval qizg'ish rangda bo'ladi. Xumbuzda pishirilgandan keyin, yashil rangga aylanib ko'zni qamashtiradi. Lojuvard rang esa kobalt, metall kukunidan tayyorlanadi.⁶

Ilgari kulollar har yil yozning jazirama issiq oylarida (qovun pishig'ida) ishqor (koshin, bodiya, xum va boshqa sopol mahsulotlar naqshlangandan keyin yuziga beriladigan sir) tayyorlash uchun qum etaklariga, Ko'hna Urganch tomonlarga chiqib

⁴ Tursunova V. Amaliy san'at turlari. –Buxoro. “Buxoro”. 2022. –127 b

⁵ Jamolova D. O'rta Osiyo ornamentlari va tasviriy san'at tarixi. –Buxoro. “Durdona”. 2021. –121 b

⁶ O. Султонов. Занги кулолчилик. // Совет Ўзбекистони санъати. 1987 й.

Date: 23rd May-2026



xaftalab yurib, cho'g'on yoqib kelganlar. Xozirgi kunda bu o'simlik juda kam o'sadi. Ishqor yana qorao'roq o'simligidan ham olinadi. Bu o'simlik sho'rxok yerlarda ko'plab o'sadi. Sentyabr oylarida, ya'ni qorao'roq ayni shiraga to'lishgan paytda uning faqat yashil novdasini yoqib, kulidan ishqor tayyorlangan. Tutatib yoqib keltirilgan cho'g'on yoki qorao'roq kuliga qum aralashtirilib namlab, guvalalab, xumbuzga qo'yilgan. U yuqori darajali issiqlikda toshga aylangan. Ikkinchi marta enda xumbuzning tokchasiga qo'yiladi. Yuqori temperatura issiqlikda erib, pastki oxiraga oqa boshlaydi. Agar u oppoq rangga o'tsa tayyor degan so'z, qoramtir bo'lsa, yana shu jarayon qaytariladi. Oq toshsimon ishqorni maydalab maxsus tegirmonda un xoliga keltiriladi. Xosil bo'lgan ishqor uniga yangi bug'doy unidan atala pishirilib, qozonda qorishtirilgan v suv solinib bulg'ab, suyuqlik xoliga keltirilgan. Endi u tayyor maxsulotlar yuzasiga cho'mich bilan berilgan. Bu tabiiy ishqor siri 900-1000 darajali issiqlikda loyga shunday kirishib, singib ketganki, u endi ob-havo sharoitiga asrlab bardosh berib o'z xususiyatini yo'qotmagan.

Ustaning ko'p yillik mehnatlari, xorijdagi muvaffaqiyatlari hisobga olinib, 1999-yilda Sulton Otajonov "O'zbekiston xalq ustasi" unvoniga ega bo'ldi. Keksa usta mustaqillik yillarida tom ma'noda kulolchilik an'alarini tiklashda jonbozlik ko'rsatdi. Usta Sulton Otajonov qadimiy an'analarni yangicha usulda qayta tikladi va u tayyorlagan buyumlarning shuhrati olamga yoyildi. Sobiq Sho'ro zamonida unutilgan shakllar, bezaklar, uslublar qayta tiklandi. Mustaqillik yillarida respublikamizning barcha hududlarida qutlug' qadamjolarini, qadimiy obidalarini tiklash, ta'mirlash ishlariga e'tibor kuchaydi. Bevosita Yurtboshimiz rahnomaligida qadimiy shaharlarning, mashhur ajdodlarimizning yubiley to'ylari keng nishonlandi. Xiva shahrining 2700 yilligi, Xorazm Ma'mun akademiasining 1000 yillik to'ylari, Ogohiy tavalludining 200 yilligi shular jumlasidandir. 1997-yil Xiva shahrining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan yirik ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. S. Otajonov rahbarligida o'z o'g'illari va shogirdlari bilan kattabog' kulollar koshinchilik san'atini qayta tikladilar. AQSH, Italiya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Rossiya, Qozog'iston davlatlari, Buxoro, Boysun, Toshkent, Samarqand, Xiva Urganch shaharlaridagibir qator obidalar, Al-Xorazmiy muzeyi, Al-Beruniy yodgorligi, qator mehmonxonalar peshtoqini usta va uning shogirdlari yasagan koshinlarini ta'mirlashda ishtirok etdi. Bu xizmatlari yuqori baholanib, Prezidentimiz Islom Karimov Kamoladdin Behzod nomidagi Davlat mukofotini topshirdi. S. Otajonov 2008-yilda vafot etdi. Uning ishlarini Odilbek Rahimov, Bahodir Otajonov, Irodaxon Sadullaeva kabi munosib shogirdlari va ularning o'g'il-qizlari davom ettirmoqdalar. Usta Sulton Otajonovning yaratgan buyumlari Berlin, Drezden, Moskva, Sank Peterburg, Toshkent, Xiva shaharlaridagi muzeylarning doimiy ekspozitsiyasidan o'rin olgan. Har bir hunarning o'ziga xos mashaqqati sir-asrorlari bo'ladi. Ota-bolalarimiz qadimdan kulolchilik sirlarini va tajribalarini o'z avlodlariga o'rgatganlar, har bir mahsulotning sifatiga, foydalanish uchun qulayligiga, umrboqiyiligiga alohida e'tibor berganlar. Shuning uchun oddiy sopol piyolalardan tortib tarixiy yodgorliklarimizni bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Date: 23rd May-2026

Xulosa qilib aytganda, Sultonboy Otajonov o'zbek milliy hunarmandchiligi va xalq amaliy san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan mohir usta sifatida xalq orasida katta hurmat qozongan ijodkorlardan biridir. U nafaqat o'zining betakror san'ati, balki yosh avlodni hunarga, milliy qadriyatlarga va estetik didga o'rgatishdagi xizmatlari bilan ham e'tirof etiladi. Uning ijodida o'zbek xalqining ko'p asrlik an'analari, milliy ruhiyati va ma'naviy merosi chuqur aks etadi. Ustaning faoliyati xalq hunarmandchiligining oddiy kasb emas, balki millat tarixini, madaniyatini va ruhiyatini saqlab qoluvchi muhim ma'naviy boylik ekanini namoyon etadi. U yaratgan asarlar nafaqat amaliy jihatdan foydali, balki yuksak badiiy qiymatga ham ega bo'lib, tomoshabinda milliy g'urur va estetik zavq uyg'otadi. Usta o'z ishlarida an'anaviy usullarni zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashtirib, xalq san'atining umrboqiyiligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Ayniqsa, uning shogird tayyorlashdagi mehnati katta ahamiyatga ega. Chunki haqiqiy ustozning qadri faqat yaratgan asarlari bilan emas, balki davomchilarini tarbiyalay olishi bilan ham belgilanadi. Sultonboy Otajonov yosh hunarmandlarga sabr, mehnatsevarlik va san'atga muhabbat ruhini singdirib, milliy hunarmandchilik maktabining davomiyligini mustahkamlagan. O'zbek xalq amaliy san'atining yorqin namoyandasi, milliy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda fidokorona xizmat qilgan buyuk ustalardan biridir. Uning hayoti va ijodi bugungi yoshlar uchun mehnat, ijodkorlik va vatanparvarlik namunasi bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Султонов. Зангори кулолчилик.//. Совет Ўзбекистони санъати. 1987 й.
2. Buvayeva V. Badiiy kulolchilikda oshyolarda ishlash. –Namangan. “Usmon Nosir media”. 2022. –113 b.
3. Tursunova V. Amaliy san'at turlari. –Buxoro. “Buxoro”. 2022. –127 b
4. Jamolova D. O'rta Osiyo ornamentlari va tasviriy san'at tarixi. –Buxoro. “Durdona”. 2021. –121 b

